

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELINI YARATISH ASOSLARI

Nuriddinov Sharofiddin Shuxrat o'g'li ¹

Assestant, "TIQXMMI" MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti "Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalari" kafedrasi assistenti

E-mail: sharofnuriddinov95@mail.ru

Annotatsiya

Ta'lim jarayoniga kasbiy faoliyatni kiritish o'quv jarayonining xususiyatini to'la o'zgartiradi. Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatining qaror topishi pedagogik masalalarni innovatsion yondashuv asosida hal qilish va amalda joriy qilish, o'z pedagogik faoliyati natijalarini o'quv fanlari mazmuniga kiritish, talabalarining o'quv kasbiy faoliyatini tashkil etish usullari va uslublarini, mustaqil ijodiy izlanish va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini egallash nazarda tutiladi. Olib borilgan ilmiy-metodik izlanishlar natijalari bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni uning kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur shaxsiy sifatlar, shuningdek kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini egallashga imkon berish maqsadida, bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuni va tuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy jarayon sifatida qarashga imkon berdi.

Kalit so'zlar: model, kognitiv, motivatsion, Sinergizm, kreativ, kasbiy, modernizatsiya, bashorat, terminalogik, metodik.

Annotation:

The inclusion of professional activities in the educational process completely changes the nature of the educational process. It is assumed that future engineers will decide on their professional activities, solve and implement pedagogical issues based on an innovative approach, include the results of their pedagogical activities in the content of educational subjects, acquire methods and methods of organizing educational professional activities of students, independent creative research and self-management skills. The results of the conducted scientific and methodological





research allow to consider the preparation of future engineers for professional activity as an organizational process aimed at improving the content and structure of the preparation of future engineers for professional activity in order to allow him to acquire the personal qualities necessary for the implementation of professional activity, as well as the sum of professional knowledge, skills and qualifications gave.

Keywords: model, cognitive, motivational, Synergism, creative, professional, modernization, prediction, terminological, methodical.

Kirish:

Muhandis modeli – bu ishlab chiqarish sohasida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarning muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlovchi, ma'lum sifatlarni ta'riflovchi hamda kasb egasining mustaqil bilim olishi va o'zini rivojlantirishini aks ettiruvchi andoza hisoblanadi.

Ushbu modelni yaratishda kasbiy kompetentliknining ma'lum turi uchun muvofiq keladigan shaxsiy sifatlar to'plami tartibga solinadi. Muhandis modelining turlaridan biri malakaviy tavsifnomasi hisoblanadi. Uning mazmunida quyidagi holatlar aks etadi: har bir lavozim hamda ish joylari uchun xos bo'lgan kasbiy kompetentliknining turlari, vazifa va majburiyatlar, shaxsiy sifatlar, bilim va ko'nikmalar. Bunday modellar kadrlarni tanlash hamda joy-joyiga qo'yish, ularni attestatsiyadan o'tkazish, shuningdek, muhandislarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy tavsifnomasi me'yoriy model deb ham ataladi. Bu mutaxassis faoliyati va shaxsiga qo'yiladigan umumiyligi talablarni aks ettiruvchi maxsus pasportdir.

Bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini modeli turlaridan biri kasbiy tavsifnomasi (professiogramma) hisoblanib, u insonning shaxsiy sifatlari, psixologik qobiliyat hamda jismoniy imkoniyatlariga qo'yiladigan kasbiy talablar, shuningdek, kasbiy shakllanish texnologiyalarini muayyan tartibga soluvchi hujjatdir.

S.I.Arhangelskiy modellashtirishni universal aloqa va o'zaro bog'liqlikni tan olish to'g'risidagi, dunyoning moddiy birligi, jonli va jonsiz tabiatning universal dialektik qonunlari, ularning rivojlanishi printsipiga asoslanadigan ta'limning bir usuli sifatida qaraydi .



Shunday qilib, modellashtirish tajribalar, kuzatishlar, mantiqiy tahlil modellarining olib borilishini ko'rib chiqadi, shu bilan birga, bunday tadqiqotlar natijalari real ob'ektlarda uchraydigan holatlar haqida hukm taqdim etishi mumkin.

Modellashtirish uchun o'xhashlik nazariyalariga ko'ra, ba'zi sharoitlar talab qilinadi.

1. Bunday hodisalar o'xhash tizimlarda sodir bo'ladi va bir xildagi matematik yoki mantiqiy bog'liklarda taqdim qilinishi mumkin. Bu munosabatlar shartli va shartsiz bo'lishi kerak.

2. Ikki yoki undan ko'p to'plamning elementlari o'zaro bir ma'noni angatsa, bir-biriga mos kelsa, o'xhash deyiladi, bir to'plam elementlarining har bir o'zgarishi, boshqa to'plam o'zgarishlariga mos keladi.

3. Modellashtirishning bu modelida asosiy va muhim bo'lib xizmat qiluvchi, shu yoki boshqa yo'naliishlarni ajratuvchi o'rghanish ob'ektining sxematik asosida sodir bo'ladi.

4. Modellashtirish o'xhash ob'ektlar va hodisalar, ularning soni bir xil o'xhashlik mezonlari deb belgilanishi zarur deb hisoblaydi.

5. Bir xil nomdag'i o'xhash mezonlarning tengligi va umumiyligi o'xhashlik shartlari hisoblanadi.

6. Modellashtirish o'rghanish ob'ektining sifat va miqdor xususiyatlari o'rtasida yuzaga chiqadi.

O'quv jarayonini tavsiflash uchun o'xhashlik metodidan foydalanish har bir o'qituvchi o'z fanini o'rghanish va o'quv jarayonini tadqiq qilish asosida fanni o'rghanishga katta qiziqish namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, o'qituvchi ta'lim vositalari, usullari, o'quv shakllaridan foydalanish rejalashtirilgan turli shakl, loyiha, dasturlar qurish bilan ham bog'liq.

S. A. Arxangelskiy qayd etganidek, bularning barchasi pedagogik faoliyat boshlang'ich tizimlarining ifodalangan ishidir. Zamонавиyl ilmiy tadqiqotlar uchun bunday modellashtirish etarli emas, buning uchun, avvalo, fanni o'rghanish, shuningdek, uni bilish jarayoni sifatida sub'ektiv emas, balki ob'ekt va aloqa munosabatlarining tavsifi talab etiladi.

Modellashtirish usuli pedagogik tadqiqotlarda empirik va nazariyani birlashtirib, pedagogik ob'ektni o'rghanish jarayonida ilmiy abstraktsiyalarni va mantiqiy tuzilmalarni qurish tajribasini birlashtiruvchi integratordir.



Biz o‘z tadqiqotimizda model tushunchasiga bir qator pedagog olimlar tomonidan berilgan ma’lumotdan foydalanamiz: Model deganda tadqiqot ob’ektini aks ettirib yoki qayta ishlab uni o‘rganishni bizga ob’ekt haqida yangi ma’lumot beradigan fikriy tasavvur yoki ma’lumotni amalga oshiradigan tizim tushuniladi.

Bir qator tadqiqotlarda ta’kidlanishicha barcha modellar quyidagi aniq umumiylar chizgilarga ega: modellashtiriladigan predmetga tizimli va tuzilmali nuqtai-nazaridan qarash; o‘rganilayotgan ob’ektga mos shajarani tasvirlash; tadqiqot olib borish uchun qulay bo‘lgan darajalar majmuasining mavjudligi.

Z.E.Chorshanbiyev oliy ta’limda kredit-modul texnologiyasi asosida tabaqaqalashtirilgan o‘qitish tizimini joriy qilishning nazariy modelining mazmunini asosiy 5 ta komponent (huquqiy-me’yoriy, tashkiliy, metodologik, jarayonli-mazmunli va natijaviy-baholovchi) ga ajratib yoritgan.

Z. Mamadaliyevaning tadqiqotlarida “Talabalarni Biokimyo fanini virtual laboratoriyalardan foydalanib o‘qitish metodikasini takomillashtirish modelini: maqsadli, asosiy, rivojlantiruvchi, monitoringli bloklarni ishlab chiqishga asoslanadi.


I. I. Umirovning “Bo‘lajak muhandislarda texnologik kompetensiyani rivojlantirish modelining tarkibiy qismlarini: motivatsion-qiyamatli, mazmunli-axborotli, jarayonli, nazorat-samarali komponentlarga ajratgan.

D.I.Qulmurodovning “Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining loyihalashtirish kompetensiyalarini kompyuterli loyihalash vositalari asosida rivojlantirish modeli: maqsadli, asosiy, rivojlantiruvchi, monitoringli bosqichlarni ishlab chiqishga asoslanadi.

Hamma vaqt aniq modellashtirish ob’ekti tahlil qilingani uchun, unga uni boshqa ob’ektlardan farqlanuvchi va model aks etgan individual xarakteristikalar xos bo‘ladi. Har qanday modelda ijod, evristika va hatto fantaziya elementlari mavjud. Modellar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak: qo‘llashning soddaligi, oddiylik, bayonning anqliligi, ifodaliligi bilan eng muhim xarakteristikalarini qamrab olish. Pedagogik modellar maksimal darajada didaktik ob’ektlarni qamrab olishi va o‘qitishning sharoitlari, mazmuni, metodlari, shakllarini tasvirlash imkonini beradi.

Innavatsion yondashuv asosida bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelini tizim nuqtai-nazaridan ko‘rib chiqamiz, tabiiy yondashish sifatida o‘zaro bog‘liq elementlar ma’lum bir yaxlit tizimni tashkil qiladi, bu uni

quyidagi bloklarga bo‘lishga imkon berdi: maqsadli, mazmunli, jarayonli, metodik va natijaviylik bloklaridan iborat bo‘lgan model 1.1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 28 maydagi "Malakali pedagog kadrlarni tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". 20.04.2017-yil PQ-2909. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda.
3. Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodlari to'plami: amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo'llanma. – T.: O'zbekiston milliy universiteti, 2003. –94-b.
4. Sh.Sh.Nuriddinov. Muxandislik yo'nalishi talabalarini innovatsion yondashuv asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik- psixologik xususiyatlari maqaolasi "Mug'allim xam uziksiz bilimlandiriu" ilimiyl metodikal jurnal 2023 6/6
5. SH.Nuriddinov B.Baratov. № DGU38937 Muhandislik yo'nalishi talabalarini innovatsion yondashuv asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirish platformasi. O'z.Res advliya vazirligi 2024-yil
6. Muslimov N.A. Bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kompetentlik. Mehnat va kasb ta'lifi o'qituvchilari kasbiy kompetentligini ta'minlashning integrativ texnologiyalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Toshkent: TDPU, 2010. - B. 114-118.
7. Бабанский Ю.К.Педагогика высшей школы:Учеб.пособие для унтови педагогически хинтов.Алма-Ата,1989.17 6с.
8. Ананев Б.Г. О человеке как объекте и субъекте воспитания Избр. психол. тр.: В 2 т. - М.: Педагогика, 1980. - 160 с.